

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

REFERAT

Mavzu: SOG`LOM BOLA—MUSTAQIL O`ZBEKISTONIMIZ TAYANCHI

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti

303-guruh talabasi

Islomova Farangiz Shuhrat qizi

Toshkent-2015

Mavzu: SOG`LOM BOLA—MUSTAQIL O`ZBEKISTONIMIZ TAYANCHI

Re`ja:

1. Farzandlari sog`lom yurt qudratli bo`lur...
2. Barkamol avlod—ona Vatanimiz kelajagi
3. “Sog`lom bola” yili munosabati bilan ko`zlangan chora-tadbirlar
4. Yurtboshimiz Islom Karimovning 2014-yil—“Sog`lom bola” yilida qilgan sa`y-harakatlari

*Bolalikning ko`chalari ko`zdan o`tar,
Umr—karvon to`xtamaydi, mangu ketar.
Yuragimga zangor sog`inch tig`day botar,
Bolaligim, sen ham meni sog`indingmi?*

Dunyoda xalqlar, millatlar, elatlar ko`p. har birining o`ziga xos e`tiqodi, o`ziga munosib urf-odati, madaniyati bor. Jahonda o`zbek xalqi borki, hech bir xalq uningdek bolajon emas, hech bir millat u kabi bolalarni qadrlamaydi.

Dunyo yaralibdiki, har bir inson ona bo`lishga, ota bo`lishga intiladi, naslini davom ettirishga harakat qiladi. Ona farzandi qornidaligidayoq buyuk-buyuk niyatlar qiladi, ota nuridiydasi uchun qulay sharoitlar yaratishga harakat qila boshlaydi. Farzandi barkamol bo`lishi uchun yaxshi bog`chalarga, yuqori malakali ustozlar dars o`tadigan maktablarga beradi. Hech kimdan kam bo`lmasin deya bolasining qiziqishiga qarab yuqori ta`lim beradigan eng nufuzli universitetlarga ta`lim olishga sharoitlar yaratib beradi. Ota-

onalarning farzandiga mehri, e`tibori, yaratib berayotgan shart-sharoitlari—bularning hamma-hammasi mustaqil O`zbekistonimiz kelajagining rivojlanishiga ko`mak bo`lib xizmat qiladi. Chunki har bir iqtidorli, tashabbuskor, yuqori malakali kadrlar—yoshlar Ona Vatanimiz kelajagidir.

Farzandlari sog`lom yurt qudratli bo`lur, qudratli elning farzandlari sog`lom bo`lur... Istiqlol yillarining shioriga aylanib ulgurgan ushbu hikmatli ibora har bir yurtdoshimizning qon-qoniga singib ketgan. Aytish joizki, o`tgan yillar mobaynida mamlakatimizda sog`lom avlodni voyaga yetkazish, umuman olganda, aholi salomatligini mustahkamlash masalalariga jiddiy e`tibor qaratib kelinmoqda. 2013-yilning 6-dekabr kuni “O`zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 21-yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan tantanali yig`ilishda ham mamlakatimiz hayotiga daxldor muhim masalalar qatori sog`lom avlod tarbiyasi bilan bog`liq mavzuga alohida e`tibor qaratildi. Tantanali yig`ilishda Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ma`ruza qilib, “Obod turmush” yili yakunlari haqida fikr bildirdi, erishilgan natija va muvaffaqiyatlarni chuqur tahlil qilib, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlarini belgilab berdi. Ma`lumki, yurtimizda kirib kelayotgan yilga nom berish ezgu an`anaga aylangan. Yurtboshimiz 2014-yilni “Sog`lom bola” yili deya e`lon qildi. Davlatimiz rahbari Islom Karimov “Sog`lom bola” yilining asosiy maqsad va vazifalariga chuqur e`tibor qaratib, mustaqillikning birinchi yillaridanoq sog`lom ona—sog`lom bola masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi sifatida qaralganini, bu borada umummilliy dasturlar doirasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirilganini qayd etdi.

Xususan, birgina joriy yilning o`zida tug`ruq yoshidagi 7 million ayol hamda 7 million 300 ming nafar bola tibbiy ko`rikdan o`tkazilgan, 300 mingga yaqin bola, jumladan, Orolbo`yi hududidan 4 ming 500 nafar o`quvchi hamda kam ta`minlangan oilalarga mansub 75 ming nafar bolaning yozgi oromgohlarda imtiyozli dam olishi tashkil etilib, ularning salomatligi mustahkamlandi. Shu o`rinda aloqa va axborotlashtirish tizimi xodimlarining 6115 nafar farzandi ham sog`lomlashtirish oromgohlarida hordiq chiqarganliklarini, buning uchun soha korxonasi va tashkilotlar tomonidan 1080093,5 ming so`m mablag` sarflanganligini aytish joiz. Bu mamlakatimiz

iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida farzandlar salomatligini mustahkamlash ishiga jiddiy yondashilayotganini ko`rsatadi. Yil mobaynida mamlakatimiz bo`yicha 311 milliard so`mlik byudjet mablag`i hisobidan 146 ta zamonaviy tibbiyot muassasasi foydalanishga topshirildi.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog`lom va ma`nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan ijtimoiy yo`naltirilgan davlat siyosatining mantiqiy davomi bo`ldi. Ona va bola, Yoshlar, Barkamol avlod, Oila va boshqa nomlar bilan atalgan yillarda amalga oshirilgan ishlar xalqimizning ezgu orzusi bo`lgan sog`lom bola tarbiyalashdek olijanob maqsadga hamohangdir. Hech shubhasiz, har birimiz farzandlarimizni sog`lom va har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, Ularning baxt-saodati, yorug` kelajagini ko`rishni niyat qilamiz.

Maysa gilam, yalangoyoq chopar edim,

Ko`k dalada ko`kka qarab yotar edim.

Yalpizlarning bo`ylaridan o`par edim,

Bolaligim sen ham meni sog`indingmi?

O`tgan davrda keng miqyosli va teran mazmunli ulkan ishlar, mamlakatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun g`oyat muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalarni bajarishga yo`naltirilgan qator umummilliy dasturlar, birinchi navbatda, "Sog`lom ona-sog`lom bola" dasturi amalga oshirildi. Farzandlarimiz va xalqimiz baxti uchun, kelajagimiz uchun qilinayotgan bu ezgu ishlar izchillik bilan davom etib, tobora kengayib borayotgani quvonarlidir.

Sog`liqni saqlash tizimini tubdan isloh etish doirasida yuqori samaradorligi butun dunyoda e`tirof etilgan ona va bola sog`lig`ini muhofaza qilishning milliy modeli shakllantirildi. Ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, sog`liqni saqlash tizimining birlamchi bo`g`inlari, shu jumladan, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalarning keng tarmog`i yaratilgani natijasida aholi, avvalambor qishloq joylardagi onalar va bolalarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlari kengaydi.

Ishonch—bu eng oliy qanot bo`lib, kishini yuksaklarga parvoz qilishga chorlaydi. Shunday ekan, Yurtboshimiz ham yoshlarga, bolalarga ishonch bildirib, bizlarga go`yoki qayrilmas qanot, so`nmas parvozlarni hadya etdi. 2014-yilni “Sog`lom bola” yili deb e`lon qilingan tantanali yig`ilishda Yurtboshimiz Islom Karimov yosh avlodga yuksak ishonch bildirib, quyidagi fikrni bildirdi: “Bizning mana shu qisqa—yigirma ikki yillik yangi tariximizda erishish, milliy davlatchiligimiz, ertangi kunimizni qurishda, yurtimizni turli balo-qazolardan asrashda O`zbekistonimizning rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi, jahon maydonida munosib obro` topishida eng asosiy omillar nima deb so`rsa, men, boshqa mezonlarni inkor etmagan holda, bir fikrni alohida ta`kidlab aytgan bo`lardim: bu yo`ldagi eng muhim omil—bu ham jismoniy, ham ma`naviy jihatdan sog`lom, hech kimdan kam bo`lmasdan, boshini baland ko`tarib yashaydigan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas`uliyatni o`z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga qodir bo`lgan barkamol avlodimiz, desam, ayni haqiqatni aytgan bo`laman”.

Darhaqiqat, muhtaram Yurtboshimiz biz yoshlarga yuksak ishonch bildirib, ta`lim olishimiz, malakali kadrlar bo`lib yetishishimiz uchun ko`plab shart-sharoitlar yaratib berar ekan, biz ham Ona Yurtimizga munosib farzand bo`lishga, uning dovrug`ini yanada olamga yoyishga, O`zbekistonimiz kelajagini rivojlantirishga, uning mustaqilligini abadiylashtirib, hamma tan oladigan rivojlangan davlatlar qatoriga kirishiga astoydil bel bog`lashimiz lozim.

Men shu jannatmakon yurtda tug`ilib, adolatparvar Prezidentimiz boshchilik qilayotgan Mustaqil O`zbekistonda yashayotganimdan faxrlanaman.